

## O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA VA MAISHIY SOHAGA DOIR ZAMONAVIY LEKSIKANING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

**Oxunjon Abdullayev.**

*TDO'AU huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy bo'linmasi uslubchisi*

Bugungi kunda ilm-fanning barcha sohalarida zamonaviy yondashuvlar asosida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tilshunoslik, shu jumladan turkologiyada ham islohotlar negizida yangi ilmiy-nazariy qarashlar shakllanmoqda. Turkiy tillar qardosh tillar bo'lganligi bois ularda o'ziga xosliklar bilan birga umumiy jihatlar ham ko'p. Turkiy tillarning grammatik belgilarini ilmiy tadqiq qilish har bir turkiy til lisoniy xususiyatlarining tarixiy daraklarini, rivojlanish usullarini aniqlash va yoritish imkonini beradi. Bu esa turkologiya uchun dolzarb masalalardan biri sanaladi. Lug'at boyligida zamonaviyligi jihatidan ikki asosiy qatlam mavjud: zamonaviy qatlam va zamondosh qatlam. Ma'lumki, har qanday til o'zaro munosabatga kirishar ekan, buning natijasida tilning leksikasida o'zgarishlar yuzaga kela boshlaydi.

Bu o'zgarishlar til lug'at boyligining yanada boyishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tillardagi lug'at tarkibni har tomonlama tahlil va tadqiq etish tilshunoslik sohasining rivojida kata rol o'ynaydi. Shu ma'noda o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi zamonaviy leksika mavzusi tilshunoslikning bugungi kundagi dolzarb masalasiga bag'ishlangan. Mazkur maqola o'zbek va qoraqalpoq tillarida yangi(zamonaviy) leksikasidagi o'zlashma so'zlar va ularning ma'no taraqqiyotini tadqiq etish hamda imlo masalasiga qaratilgan. O'zbek va qoraqalpoq tillari leksikasida o'zlashma so'zlarning tutgan o'rni, ularning ma'no taraqqiyoti, tematik guruhi va leksikografik talqini kabilarni yoritish mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi. Ikki til doirasida ularga boshqa tillarning ta'siri va bir-biriga ta'sirida leksikaning rivojlanishi masalasini yoritish muhim hisoblanadi.

Zamonaviy qatlamga bugungi til amaliyotida odatdagi, rasmona deb qaraluvchi leksemalar kiritiladi. Bu qatlamdagi leksemalar na yangilik va na eskilik bo'yog'iga ega bo'lmaydi. Leksemalarning ko'pchiligi – xuddi shunday. Zamonaviy qatlamga mansub deb belgilashda leksemaning yakka shaxslar nutqidagi mavqeyi emas, balki umumtildagi mavqeyi asosga olinadi. Leksemani zamonaviy qatlamga kiritishda ularning nutqda ishlatilish miqdori ham asosga olinmaydi. Nutqda ko'p ishlatiladigan leksema odatda zamonaviy qatlamga mansub bo'ladi. Zamonaviy qatlamga, bulardan tashqari, nutqda oz ishlatiladigan leksemalar ham kiritiladi. Shunga qaramay terminlar zamonaviy qatlamga kiritilaveradi. Yangilik bo'yog'i bor leksemaga neologizm deyiladi (yunoncha neos - yangi) [1: 156]. Neologizm tilga umuman mansub bo'lishi yoki yakka shaxs nutqiga xos bo'lishi

mumkin. Birinchisi umumtil neologizmi deb, ikkinchisi individual nutq neologizmi deb yuritiladi.

Leksemikada, asosan, umumtil neologizmi o'rganiladi. Individual nutq neologizmi uslubga xos hodisa deb qaraladi. O'zbek va qoraqalpoq tili leksikasida yangi o'zlashma so'zlar o'ziga xos tizimga ega. Ijtimoiy hayotdagi rivojlanishlar ta'sirida tilning lugat sarhadlari kengayadi va o'sib boradi, ba'zan esa so'zlar lug'atlardan uzoq joy egallay olmay, tushib qoladi. O'z navbatida, o'zgarishlar yoki keskin rivojlanishlar madaniyat, san'at, fan va texnologiya taraqqiyoti tufayli sodir bo'ladi. Istiqoldan so'ng o'zbek tili va qoraqalpoqtili lug'at boyligi ham shunday so'zlar hisobiga kengaydi va taraqqiy etdi. Buning sababi sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

1. Mustaqillikdan so'ng jamiyat hayotida siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa sohalarda bo'lgan o'zgarishlar.

2. Jahon miqyosidagi ilf-fan, texnik taraqqiyot ta'siri.

3. Xorijiy tilda muloqot qiluvchi yurtdoshlarimizning yangi (zamonaviy) o'zlashma so'z va terminlarni o'z nutqlarida ko'plab qo'llashlari.

O'zbek tilining izohli lug'atida o'zlashma so'zlarning qaysi tilga tegishli ekani alohida shartli qisqartmalar asosida ko'rsatilar ekan, ularning o'z tilidagi lug'aviy ma'nosi va tilimizga o'zlashganidan keyingi monosemantik yoki polisemantik xususiyati alohida ko'rsatib berilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zbek tilining izohli lug'atida o'zlashma so'z olib kirgan tillar sifatida 16 ta til so'zlaridan misollar berilgan. Bular sirasiga arab, fransuz, fors-tojik, golland, hind, ingliz, ispan, italyan, lotin, mo'g'ul, nemis, polyak, rus, xitoy, yunon, chex tillari kiritilgan.[2: 208]

Zamonaviy leksika fan va texnologiya hamda iqtisodiyot sohasining rivojlanishi bilan, ayniqsa, tez sur'atlar bilan ko'payadi. Bugungi kunda maishiy leksikaning so'zlashuv tilida va hatto badiiy asarlarda ham juda ko'plab qo'llanayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bular, ayniqsa, kundalik ishlatadigan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari va kiyim-kechak nomlari bilan bog'liq. O'zbek va qoraqalpoq tillariga bunday leksemalarning o'zlashishi yoki tilning ichki imkoniyatlari asosida yuzaga kelayotgan bunday atamalar so'zlashuv tilida juda faol bo'lsa ham hanuz o'z izohini yoki muqobilini topib adabiy tilga kiritilgani yo'q.

Maqolada shu kabi masalalarga to'xtalinib, ular misollar yordamida izohlanib berilgan. Maishiy va axborot-kommunikatsiya sohaslarida keng qo'llanilayotgan bu leksemalar xalqqa tushunarli va sodda qilib izohlab o'tilgan. Misollarda keltirilgan bu leksemalar ikkala tilda ham birday qo'llanilib, faqat ayrim jihatlari bilangina ma'nosida o'zgarish yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Maqolada keltirilgan misollar vaqtli matbuot va jurnalistikaga doir materiallar asosida yig'ilgan.

Sayt [ingl. site – o'rin, joy] leksemasi hozirda faol leksemadir. Internetda muayyan mavzu yo'nalishi bo'yicha to'plangan va shakllantirilgan, doimo yangilanib, to'ldirib

boriladigan, o'z nomi (sarlavhasi)ga ega bo'lgan ma'lumotlar yig'indisi ma'nosida ishlatiladi, o'rni bilan elektron sahifa leksemasi bilan ma'nodoshlik hosil qiladi.

Viktorina –muayyan bir soha doirasida yoki bir necha sohalar yuzasidan o'tkaziladigan savol-javob orqali o'tkaziladigan tanlov. Viktorinada faqat savol-javob emas balki har turdagi shartlar asosida ham olib borilib, bir necha qatnashchilar orasidan g'olibni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Virtual –har qanday axborotni yuborish, qabul qilish va qayta ishlash amallarini masofadan turib internet orqali amalga oshirish jarayoni nazarda tutiladi. Maktublar, arizalar, shikoyatlarni tegishli muassasaga yuborishda bevosita joylardan turib jo'natishni ta'minlash.

press-sekretar [ingl. presse-secretary] leksemasi esa prezident yoki bosh vazirning matbuot bo'yicha kotibi ma'nosida matbuot kotibi leksemasi bilan erkin almashinish xususiyatiga ega.

Reportyor [ingl. reporter] leksemasi tilimizga arab tilidan o'zlashgan muxbir leksemasi bilan erkin almashish xususiyatiga ega.[3: 19]

Desert – restoranlar, kafelar yoki ziyofatlarda asosiy taomlardan keyin tortiladigan yengil parhez bop yeguliklar. Desertga har xil go'shtsiz salatlar yoki shirinliklar kirishi mumkin. Fransuzlarda desertga, asosan, bir bo'lak shokoladli shirinlik tortiladi.

Brifing –mas'ul hodimning yoki tegishli shaxsning ommaviy axborot hodimlariga tashkil qiladigan matbuot anjumani. Brifingning matbuot anjumanidan farq qiladi. Odatda, brifing 5-15 daqiqa davom etadi va matbuot anjumanidagi kabi jurnalistlar savol berishmaydi. Istisno tariqasida tushunarsiz masalaga oydinlik kiritish uchun ko'pi bilan ikkita savol berilishi mumkin. Brifingda ko'tarilgan masalaga oid ma'lumotlar, hisobotlar beriladi.

Dispetcher –bir necha aloqa liniyalarini bir liniyaga yoki o'zaro bog'lovchi shaxs tushuniladi. Simsiz mobil aloqalar bo'lmagan paytda bu termin o'rniga kommutator termini ishlatilgan. Hozirda dispetcherlik ko'plab sohalarga targ'ib qilinmoqda.

Mustaqallikdan so'ng tilimizga yangi so'zlarning kirib kelishi qanchalik tezlashgan bo'lsa, ko'pgina so'zlarning tilimizning leksik qatlamidan chiqib ketishi shunchalik tezlashdi. Shu bilan bir qatorda tilimizga flesh, multimedia, blutus, multimillioner, intranet, peyjeriing kabi neologizmlar ham kirib keldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili., Toshkent., "Universitet", 2006, 156-b.
2. R.Sayfullayeva va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili.,Toshkent., 2010, 208-b
3. O'zbek tilining kirill va lotin imlo lug'ati. Toshkent., "Sharq", 2015, 7-10-b
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. III jild, – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.

6. O'zbek tilining izohli lug'ati. IV jild, – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. V jild, – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.